

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH.

Amriyeva Gulhayo G'aybulloyevna

G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi

maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maxsus fanlarni o'qitish, darslarda o'quvchilarga individual yondashgan holda zamonaviy metodlardan samarali foydallanish yo'llari haqida so'z borgan.*

Аннотация: *В данной статье говорится о способах эффективного использования современных методов преподавания специальных предметов при индивидуальном подходе к учащимся.*

Abstract: *This article discusses ways to effectively use modern methods in teaching special subjects and individualizing students in lessons.*

Kalit so'zlar: *maxsus fanlar, interaktiv metodlar, kompyuter texnologiyalari*

Key words: *special sciences, interactive methods, computer technologies*

Ключевые слова: *специальные науки, интерактивные методы, компьютерные технологии*

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiaillarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni hotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga ko'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni hotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

Hozirgi kunda o'qitish metodlarining uchta katta guruhi alohida ajratilgandir:

- o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiya metodlari;

O'quv-tarbiya jarayonida o'qitish metodlari quyidagi funksiyalarni bajarishi ma'lum:

- o'rgatuvchi (metod yordamida o'qitish maqsadiga erishiladi)
- rivojlantiruvchi (metod yordamida o'quvchilar rivojlanishining u yoki bu sur'ati (tempi) va darajalariga erishiladi).
- tarbiyaviy (metod yordamida tarbiya natijalari oldindan belgilanadi)
- istak tug'diruvchi yoki motivatsiya (o'qituvchi uchun metod o'quvchida o'qish uchun istak tug'diruvchi va bilish faoliyatini rag'batlantiruvchi vosita bo'lib kiladi)
- nazorat-korreksion (metod yordamida o'qituvchi o'quv jarayonining borishini



va natijalarini tashxis kiladi).

Ma'lumki, maxsus fanlar o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro'lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilayotgan sohalarni bugun har yerda, har qadamda uchratish mumkin. Multimediya texnologiyalari (proyektor), elektron doska va hakazolar kundalik turmushimizga kirib keldi. Shu nuqtai nazardan olib qaragandada o'quvchi-yoshlarni zamonaviy axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish, ularda o'z faoliyat sohasida yangi axborot texnologiyalari va interfaol usullardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini xosil qilish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha nazariy va amaliy darslarni tashkil etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'rganilayotgan mavzuning yana keng qamrovli tushinib olishiga, bilim ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. THE ROLE OF EDUCATION IN ECONOMIC DEVELOPMENT: A THEORETICAL PERSPECTIVE. Ilhan OZTURK. Journal of Rural Development and Administration, Volume XXXIII, No. 1, Winter 2001, pp. 39-47.
2. Xudoynazarovich, S. A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.
4. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. Gospodarka i Innovacje., 48, 715-720.
5. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
6. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. Gospodarka i Innovacje., 46, 620-627.
7. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 8-14.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

8. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 15-21.

9. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Gospodarka i Innovacje., 51, 191-195.

